

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA DAVR MUAMMOLARINING YORITILISHI

Sayfullayeva Rayhona Ulug‘bekovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti, filologiya va tillarni o‘qitish:
o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi,
@sayfullayevarayhona12gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi ijodkorimiz Abdulla Qahhor hikoyalarida davr muammolari yoritilgani haqida fikr yuritamiz. Sir emaski, har bir davrning kundalik hayotda jamiyatni qiynab keladigan eng dolzarb ijtimoiy masalalari bo‘ladi. Ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma‘naviy meroslardan ma‘lumki, zamonning ayovsiz zarbalari xalq taqdirini ham chetlab o‘tmagan. O‘zbek xalqining oddiy aholisi mustaqillikka erishishdan avval, balki undan keyingi davrlarda ham ruhan hamda jismonan ezilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buyuk qalam sohibi Abdulla Qahhor shu kabi muammoli vaziyatlarni, o‘zbek xalqining XX asr boshlarida o‘tkazgan ayanchli kunlarini o‘z asarlarida hayotiy, real tasvirlar orqali mahorat bilan ifodalagan. Bu kabi haqiqatlarni qalamga olish ham ancha mehnat talab qilgan, albatta.

Kalit so‘zlar: avtobiografiya, ijtimoiy muammo, real tasvirlar, xalq qiyinchiliklari, ruhiy holatlar, badiiy tasvirlar, badiiy adabiyot, hikoya, hikoya badiiyati, badiiy mahorat masalasi.

Annotation: In this thesis, we will consider the problems of the era covered in the stories of our creator Abdulla Qahhor. It is no secret that every era has the most pressing social issues that torment society in everyday life. It is known from the spiritual heritage that has come down to us from our ancestors that the cruel blows of time have not bypassed the fate of the people. It is no exaggeration to say that the ordinary population of the Uzbek people was spiritually and physically oppressed before and after independence. The great writer Abdulla Qahhor skillfully expressed such problematic situations, the miserable days of the Uzbek people at the beginning of the 20th century through vivid, realistic images in his works. Of course, it took a lot of work to capture such truths.

Keywords: autobiography, social problem, realistic images, people's difficulties, mental states, artistic images, fiction, story, narrative art, the issue of artistic skill.

Kirish. XX asr o‘zbek adabiy jarayoni murakkab tarixiy sharoitlar, ijtimoiy-siyosiy silkinishlar va xalq hayotida yuz bergan og‘ir sinovlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllandi. Bu davr adabiyotida jamiyat hayotidagi keskin o‘zgarishlar, mustamlakachilik siyosati, urushlar, ocharchilik va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolar badiiy aksini topdi. Adabiyot xalq dardi, uning ruhiy holati va hayotiy kurashlarini ifodalovchi muhim ijtimoiy minbarga aylandi. Ayniqsa, realizm tamoyillari asosida yaratilgan asarlarda oddiy inson taqdiri, adolatsizlikka qarshi ichki norozilik va haqiqatni ochib berish asosiy mavzulardan biri bo‘ldi. Ana shunday tarixiy-adabiy muhitda yetishib chiqqan Abdulla Qahhor ijodi XX asr o‘zbek adabiyotining muhim bosqichini tashkil etib, davr muammolarini hikoya janri orqali hayotiy va ta’sirchan tarzda yoritib berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qahhorning bolalik yillari Birinchi jahon urushi, mardikor olish voqealari, ishsizlik, ocharchilik kabi qiyin

davrga to'g'ri kelgani barchamizga sir emas. U 1907-yilning 17-sentyabrda Qo'qonning Asht rayonidagi qishloqlardan birida dunyoga kelgan. Otasi Abduqahhor Jalilovning kasbi temirchi bo'lgani bois ular ko'chib yurishar edi. Yozuvchi mashhur avtobiografik usulda yozilgan "O'tmishdan ertaklar" asarida quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tgan: "Bundan o'ttiz yil burun men Anton Pavlovich Chexov domlaning yigirma ikki tomlik to'plamini qo'limdan qo'ymasdan o'qib chiqdim. Shunda alomat bir hodisa yuz berdi: shu bilan muhtaram ustod menga go'yo muborak ko'zoynaklarini berdilar-u: "Mana buni taqib, o'z xalqingning o'tmishiga nazar sol!" dedilar. Ehtimol, mana shularning natijasi bo'lib, o'ttizinchi yillarning o'rtalarida g'am-g'ussaga to'la "O'g'ri", "Tomoshabog'", "Bemor", "Anor", "Ming bir jon" kabi asarlari vujudga kelgan". [O'tmishdan ertaklar, 1-b] Buyuk ijodkorni "o'zbek Chexovi" deb atashlari ham bejiz emas, albatta. Shunday qilib, Abdulla Qahhor ham Chexov kabi hayot haqiqatlarini, o'tmishini o'z asarlarida oshkora yoza olgan.

Asosiy qism. Abdulla Qahhor davrning muhim muammolarini, asosan, hikoyalarida yoritib bergan. Masalan, "O'g'ri" hikoyasini oladigan bo'lsak, 1936-yilda yozilgan bo'lishiga qaramay, undagi ijtimoiy masalalar hozirgi kunimizda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Kitobxon bu asarni o'qish paytida o'g'ri deganda Qobil boboning ho'kizini devor teshib olib ketgan kishini tushunadi. Ammo muallif o'quvchiga chuqur mushohada bergan, haqiqiy o'g'ri xalqning og'ir holatidan foydalanib, undan foyda ko'radigan amaldorlardir. Masalan, amin haqida "og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi" qabilidagi individual belgilarni bo'rttiradi. Shu individual belgilarni bo'rttirish bilan adib zamona amaldorlariga xos umumiy xususiyatni – qo'l ostidagi fuqaro taqdiriga befarqlikni ko'rsatadi. [D. Quronov, 45-b] Asar qahramonlari "burunsiz" ellikboshi, amin, pristav va boshqa amaldorlar o'zlarini mehribon yelkadoshdek ko'rsatib, xuddiki yordam bermoqchidek tutishadi. Biroq ularning hammasi chorasiz qolgan Qobil bobodan pul, sovg'a va shu kabilarni olish uchun qilingan edi. Har bir arbob unga ho'kizini topib berishda umid bag'ishlaydi, ammo hech biri yordam qo'lini cho'zmaydi. Hikoyaning yana bir ko'zga ko'rinadigan jihati shundaki, ijodkor Qobil bobo va kampiri orqali xalqning chorasizligini, najotni faqat boshqalardan kutishini ko'rsatadi. Abdulla Qahhor yuqoridagi vaziyatlarni tasvirlash orqali millatni uyg'onishga, o'z haqqini talab qilishga undaydi. Bundan tashqari, "Otning o'limi-itning bayrami" degan epigrafi bilan asarning butun mazmunini yaxlitlashtirgan. Ot mehnatkash, halol xalq ramzi bo'lsa, it o'z manfaati yo'lida qiynalgan xalqdan foydalanadigan amaldorlardir. Bugungi davrdagi kitobxonlar bu asarni ayni zamondagi ba'zi masalalar ildiziga nazar solish uchun ham o'qishi zarur.

Yozuvchining “Dahshat” hikoyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu asarda o‘sha davrdagi odamlarning ayanchli hayoti va ayollarning ruhan qiynalgan holatlari tasvirlangan. Abdulla Qahhorning o‘zi “O‘tmishdan ertaklar” asarida ham bu haqida quyidagicha aytib o‘tgan: “1960-yilda o‘zbek ayolining o‘tmishga oid “Dahshat” degan bir hikoya yozgan edim. Bu hikoyada sakkizta ayolni Olimbek dodxonning haramiga qamab qo‘yganim bir ayolga haqorat bo‘lib tushibdi”. [O‘tmishdan ertaklar, 3-b] Hikoya voqealari Olimbek dodxonning uyi va qabristonda bo‘lib o‘tadi. Boshlanishida Olimbek dodxonning uyidagi sakkiz xotini va atrofda ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli tasviri keltirilgan. Ular dahshatli shamoldan qo‘rqqani-dan qabriston vahmi xayollariga keladi. Gapdan gap chiqib Nodirmohbegim ularga Asqar ponsotning go‘riga pichoq sanchib kelgan kishi haqida so‘zlab beradi. Shuningdek, bunday voqealar jamiyatdagi odatlarni, kishilarning psixologiyasini, his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Nodirmohbegim aytib bergan hikoyadan keyin bosh qahramonlar o‘zaro bahslashib qoli-shadi. Oqibatda, Unsinga qabristonga borib qumg‘onda choy damlab kelish sharti topshiriladi. U bu shartdan qo‘rqmaydi, sababi ota-onasining oldiga, Ganjiravonga ketish istagi juda ham kuchli edi. Unga tasalli bo‘lgan yagona so‘z: “O‘likning joni yo‘q!” Shuningdek, Unsin vahimali qabristonga borib choy qaynatganidan so‘ng qo‘rqqanidan joni uziladi. O‘sha paytda ayollarga yomon munosabatda bo‘lishganligi sababli u hatto o‘lishini bilsa-da, katta tavakkalga qo‘l uzatadi. Natijada, Unsin “tiriklar qabristoni” dan qutulib, o‘lik holida bo‘lsa ham, ota-onasining yoniga jo‘natilgan edi. Demak, ushbu hikoyasi orqali yozuvchi kishilarning erksizligidan ozod hayotga intilish, ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengish yo‘lidagi kurashini, harakatini tasvirlab bergan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbeklarning atoqli va zabardast ijodkori Abdulla Qahhor zamon bilan hamnafas yashab ijod etgan. Qahhor doimo xalq dardi bilan birga hayot kechirgan. Jumladan, E‘rkin A‘zam yozuvchi haqidagi xotiralarni eslab shunday yozadi: “Men Abdulla Qahhor siymosida haqiqatning timsolini, timsol ne, haqiqatning o‘zini ko‘rgandek bo‘laman. Ul zot hayotda ham, ijodda ham, adlu insof uchun og‘ishmay kurashgan, so‘nggi nafasiga qadar birovga na egilgan, na bukilishni bilgan jasur, matonatli inson sifatida har bir ijodkorga ibrat bo‘lgusidir” [Xolmatova N, 550-b]. Bu kabi iliq fikrlarning isboti sifatida uning bir qancha asarlarini, masalan, “Sarob” romani, “Sinchalak” qissasi, “Asror bobo”, “San‘atkor”, “Bemor”, “Anor”, “Adabiyot muallimi” kabi hikoyalarini yaqqol namuna qilish mumkin. Demak, adib zamonning dolzarb masalalarini hayotiy badiiy tasvirlar orqali ba‘zan kulguli satira, ba‘zan achchiq drammatizm bilan ifodalab, kitobxonlar qalbidan chuqur o‘rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qahhor. O‘tmishdan ertaklar. Sarguzasht qissa. –Toshkent: Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 289 b
2. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademnashr, 2010. 397 b
3. Xolmatova N. Xotiralarda adiblar siymosi // O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari, xalqaro ilmiy-nazariy anjuman // Qashqadaryo: Academic books nashriyoti, 2024. – B. 550 - 551